

## Nurota tizmasi shimoliy yon bag‘ri qishloqlarida an‘anaviy turar joylar

*Berdiyev Azamat Abdiyevich*

*Samarqarqand viloyat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy xodimi*

*Email: [bazamat233@gmail.com](mailto:bazamat233@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Maqolada Nurota tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘rida joylashgan tojik aholisining arxitektura va shaharsozlik madaniyati, ixtisoslashtirilgan binolar va ulardan foydalanish, chorvadorlar va dehqon xo‘jaliklarining turar joylari farqlari va umumiyliklari ilmiy tadqiqotlar asosida yoritilgan.


**Kalit so‘zlar:** Turar joylar, “tobistoni”, “zimistoni”, “panjakash”, supalar.

**Аннотация:** В статье на основе научных исследований описываются архитектура и градостроительная культура таджикского населения, расположенного на северных склонах Нуротинского хребта, специализированные постройки и их использование, различия и сходства жилищ скотоводов и земледельцев.

**Ключевые слова:** Резиденции, «лето», «зима», «панджакаш», супа.

**Abstract:** The article, based on scientific research, describes the architecture and urban culture of the Tajik population located on the northern slopes of the Nurota ridge, specialized buildings and their use, differences and similarities between the dwellings of pastoralists and farmers.

**Key words:** Residences, “summer”, “winter”, “panjakash”, soup.



“Forish tojiklari” yashaydigan hududning karta-sxemasi

**Kirish.** Milodiy III-IV asrlar O’rta Osiyoda quldorlik tuzumning tanazzulga yuz tutishi bilan xarakterlanadi. Natijada ma’lum bir vaqtga kelib markazlashgan shahar hokimiyati o’z ta’sirini yo’qotib, nufuzli dehqonlar atrofiga umumiy mehnat asosida birlashgan kadivarlar uyushmalari yuzaga keladi. Bu esa o’z navbatida feodal munosabatlarning yuzaga kelishiga asos bo’ladi[1,B.94]. Muhammad Narshaxiyning yozishicha, IV-asrgacha Buxoro vahasi intensiv o’zlashtiriladi[2,B.133]. Turkistondan ko’chib kelgan odamlar dastlabki davrda dehqonchilik uchun noqulay bo’lgan yerlarni o’zlashtirishadi. Dastlab ko’chib kelganlar chodir va o’tovlarda yashashadi. Bu joylarda suvning ko’pligi, ov sharoitining yaxshiligi va daraxtzorlarning borligi ularning shu yerda o’troqlashib, mustahkam binolar barpo etib, o’troq hayot tarziga o’tishlariga sharoit yaratgan. Jumladan, bir qancha: Nur, Xarqonrud, Vardona, Taravja, Safna, Isvona kabi aholi punktlari vujudga keladi. Qadimgi davr tarixidan yaxshi ma’lum bo’lgan Abro’y shunday hokimlardan biri edi[3,B.23].

**Adabiyot tahlili.** Arab sayohlari, tarixnavislari va geografiyashunoslarining ma’lumotiga qaraganda ilk o’rta asrdagi O’rta Osiyo shaharlarining aksariyati uch qismdan iborat bo’lgan. Bu uch qismning biri shahar arki (ko’handiz)-hukmdor qarorgohi bo’lsa, ikkinchisi shahriston (madinai dohil) bo’lib, shaharning asosiy

qismi savdo hunarmandchilik rastalari, boshqa jamoat va turarjoy binolarini o'z ichiga olgan. Uchinchi qismi rabot deb atalgan va u shahardan tashqaridagi savdo-hunarmandchilik zonasini tashkil etgan[4,B.11]. Lekin, VII-VIII asr shaharlarini o'rganish natijalari ularning ko'pchiligi faqatgina ikki qismdan – ark (yoki qal'a) va shahristondan tashkil topganini ko'rsatadi[5,B.341]. Temuriylar davrida qurilgan maqbaralar shakllanish kompozitsiyasi jihatdan ikkiga bo'linadi:

1. Bir xonali;
2. Ko'p xonali binolar.

Birinchi misolida O'rta Osiyo va Eron me'morchiligi uchun azaldan yakka tartibdagi inshootlar uchun dasturiamal bo'lib kelgan chortoq. Bu usul islom tarqalguncha otashparastlar ehromlari – otashkadalar qurilishida keng qo'llanilgan[6,B.164].

**Muxokama va natijalar.** Turar joylar asrlar davomida tog' g'orlari, tabiatdagi oddiy boshpana bostirmalardan boshlab, zamonaviy ko'p qavatli uylargacha murakkab taraqqiyot jarayonini bosib o'tgan. Ayni vaqtda me'morlik shakli shamoyili asosini ta'minlab kelgan. Tosh davrida g'or, chayla, yerto'lalar turar joy vazifasini o'tagan[7,B.9-10]. Umuman olganda O'rta Osiyo xalqlarining turarjoylari qurilishi uslubi ko'p ming yillik madaniy rivojlanish mahsuli bo'lib, juda ham rang-barang me'moriy an'analarni o'zida mujassam etgan. Masalan, birgina yozgi xonalarning o'nga yaqin turi mavjud va ma'lum. Bular – dolon, shiypon, ravon, ayvon, kayvon, soyavon, nimaybon, o'ngayvon, tersayvon va hokazolardir[8,B.362]. Nurota tizmasining shimoliy yon bag'ri Buxoro xonligiga qarashli bo'lganligi, Buxoro xonligining me'morchilik nuqtayi nazardan ham ta'siri kattaligini inobatga olsak, mazkur qishloqlardagi uy-joy va inshootlarning me'moriy yechimini Buxoro xonligi misollaridan foydalandik. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu an'analarning ichida bevosita iqlim sharoitiga moslashish va xalq urf-odatlarini hisobga olish tufayli yuzaga kelgan o'nlab me'moriy qonuniyatlar yuzaga kelgan bo'lib, ular asossiz unutilib yuborilayapti. Buning asosiy sababi – inqilobdan keyin O'rta Osiyo xalqlari madaniy turmush tarzi keskin o'zgardi. Madaniy taraqqiyotning tabora yuksalishi natijasida xonadonlarga tancha (sandali) o'rniga pechka, jinchiq o'rniga lampa (chiroq) kirib kela boshladi.

Qadimgi shaharlar, qo'rg'onlar, uy-joylarning qurilishi xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, ularning aksariyatining balandlik joylarga, ko'pincha sun'iy tepaliklarga qurilgani e'tiborimizni o'ziga qaratdi. Buning birinchi sababi albatta bu inshootlarning mudofaa qobiliyatini yaxshilash bo'lgan. Lekin arxitektura doktori

M.S. Bulatovning e'tirof etishicha buning yana bir sababi yer osti xonalar va xovli sahnini ortiqcha zaxlardan saqlashda ekan[9]. Darhaqiqat yer osti sizot suvlari yer sahniga yaqin joylashgan soylarda bunday uslub keng qo'llanilgan[10]. Hatto hozirgi kunda ham Nurota tizmasining shimoliy yon bag'ri aholisi uy-joy qurilishida takjoyni (poydevor) loysiz, faqat toshlardan terib, ustiga imorat qurish hollari bu fikrimizning dalilidir.

Qal'a devorlari nafaqat istehkom yoki mudofaalanish manbai bo'libgina qolmay, garmsel shamollarini (asosan yoz oylarida shimol tomondan, sharqiy qizilqum cho'lidan esadigan issiq shamol) to'sish uchun ham xizmat qilgan. Mana shu yana soylikdagi xovli devor tashqarilariga ihota daraxtlari o'tqazilgan va bo'lar bunyod etilgan. Nurota tizmasining shimoliy yon bag'rining Qizilqum cho'li tomonidan keladigan qishki (noyabr oylaridan to erta bahorgacha) sovuq shamollari[11,B.201] ham chorvadorlarni noqulay ahvolga solgan, chorvani yaylovga boqish imkonini bermagan, bunday sharoitda tog'larning ichkari (iq-shamol pana) joylarida chorva jon saqlagan. Akademik M.Ye.Massonning fikricha bunday devor qadimgi Marg'iyonada ham bo'lgan va u ham qum ko'chishi hamda qishloq va shaharlarni chang yopirilishidan saqlagan[12,B.17].

Markaziy Osiyo turar joy imoratsozligi ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyot davomida bir qator me'moriy yechimlarni keltirib chiqardi. Jumladan eng qadimgi qo'llanilgan ko'p xonali yaxlit struktura keyingi yoz yilliklarda dahliz-xona majmuasini keltirib chiqardi. Xovli imoratning negzini va mohiyatini tashkil etadigan bo'ldi. Nurota tizmasining shimoliy yon bag'rida joylashgan uylarda "tobistoni", "zimistoni" xonalar turkumi yuzaga kelgan[13,B.132].

Umuman, O'rta Osiyo me'morchiligi va shaharsozligi XIX asr oxiri XX asr boshlarida quyidagi uch yo'sinda taraqqiy etdi:

1. Yevropa shaharsozligining kirib kelishi va O'rta Osiyo shaharlarining yangicha qiyofasi.
2. Milliy me'morchilik va rus arxitekturasi o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi muxandislik-qurilish yechimlari.
3. An'anaviy me'morchilik rivoji[14,B.56].

Inqilobga qadar mahalliy me'morchilikdagi Yevropa ta'siri yanada kuchaydi, XX asrda yevropacha juda ham noqulay uylar paydo bo'ldi. Yaxlit cherdakli to'rt burchak bir tom ostida joylashgan xonalar majmuasidan iborat edi. Undagi xonlarning bir nechtasiga bir yo'lakdan kirilishi, tomning qulayligi, isitish sistemasi, Nurota tizmasining shimoliy yon bag'rida har tomonga chiqishi bu turdagi binolarning tez

orada tarqalishiga sabab bo'ldi. Taxminan bir asrlik vaqt ichida ming yilliklar davomida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan, atrofi o'rab olingan hovlili uyning asosiy elementi qilib olingan imoratlar o'rniga o'ta noqulay tur-hovlining bir butchagigagina joylashtirilgan imorat qurish an'anaga aylanib qoldi.

Taasufki, Yevropa muhandislik ilmi bilan birga kirib kelgan ilg'or qurilish va muhandislik usullarini o'zlashtirishda bir yoqlamalikka yo'l qo'yildi. Yevropadan nimaiki kirib kelsa ilg'or va aksincha – mahalliy barcha an'analar zararli, eskirgan, degan aqida yuzaga keldi[15,B.152]. Natijada bir qator ijobiy me'moriy ilmlar unutildi. Jumladan, o'rta asrlar me'morchiligimizdagi handasaviy uyg'unlashtirish usullari, naqsh bog'lash san'ati, koshinkorlik, gumbaz, qanoslar bog'lash va shu singari an'analar qadsizlanib, iste'moldan chiqib ketdi. Bugungi kunda qadimiy qadriyatlar o'rganilmoqda va undan foydalanish choralari qidirilmoqda. Buxoro amirligi davrida qishloq aholi punktlarida qurilish va me'morchilik ishlari ancha pasaydi. Bu davrda qurilgan uy-joy va inshootlarning bir qismi texnik, me'moriy va badiiy saviya jihatidan o'rta asr holida qoldi[16,B.23], bunga Nurota tizma tog'lari shimoliy yon bag'rida joylashgan qishloqlardagi qurilgan masjid va uy-joylar misol bo'la oladi. Biroq, ommaviy hashar yo'li bilan qurilgan qurilishlar juda ko'p bo'lgan. Boylar va kambag'allar uy-joyidagi loyihasi, bezaklari va qulayligi jihatidan juda farq qilgan. Qishki va bahorgi uylar qurilib, bo'lar tosh devorlar bilan o'ralgan. Binolar ko'pxonali bo'lib, yashash xonasi, mehmonxona, omborxona va alohida, ko'pincha xovlidan uzilgan uzoqlikda molxona qurilgan. Uylarning ichki qismini bezashda hunarmandchilikning gul suvoq, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik va naqshlar bilan bezash turlari urf bo'lgan. Garchi bugungi kunda odam yashamasada, orasiga loy qo'ymasdan, toshdan qurilgani uchun Zarnuk (Zihnok), Ej va Uxum qishloqlaridagi qal'alar, Sentob qishlog'idagi chordevollar yaxshi saqlangan. Ba'zi uylar burchaksiz, doira shaklida qurilgan bo'lib, hatto suvoq qilinmagan[17].

Turar joy (boshqa nomlari: uy-joy, makon, istiqomatgoh) deb odam yoki boshqa hayvonlar istiqomat qiladigan inshootga aytiladi[18,B.9]. Turar joylar xilma-xil bo'ladi: oddiy kulbadan tortib murakkab qurilmalar tizimigacha. Turar joyda doimiy yashovchilar bu inshootni uy deyishadi[19,B.241]. Uyda istiqomat qiluvchi ijtimoiy birlikka uydagilar deyiladi, bu birlik odatda oila, ayrim hollarda esa har qanday boshqa ijtimoiy guruh, tashkilot yoki yolg'iz kimsalar bo'lishi mumkin. Turar joy — yashash maskani, boshpana joy, uyjoy binolari. Oila istiqomat qiladigan uy, oilaning maishiy hayoti o'tadigan muhit. Turar joy ibtidoiy davrlardayoq taom

tayyorlash, libos kiyish qatorida paydo bo‘lgan. Turar joylar me‘morliqsa eng ko‘p tarqalgan inshoot turi bo‘lib, boshqa turdagi inshootlarning shakllanishi va rivojlanishini ko‘p jihatdan belgilab bergan. Turar joyning tashki va ichki shakllari, turlari va ko‘rinishi jihatidan xilmaxilligi iklim, tabiiy geografik sharoit taqozosi, ijtimoiy munosabatlar xususiyati, iqtisodiy moddiy turmush darajasi, madaniy va milliy an‘analarga bog‘liq holda rivojlanib, murakkablashib borgan. Turar joyning oddiy turlari qadimiy Tosh davridan ma‘lum[20,B.42]. Nurota tizmasining shimoliy yon bag‘ri Buxoro xonligiga qarashli bo‘lganligi, Buxoro xonligining me‘morchilik nuqtayi nazardan ham ta‘siri kattaligini inobatga olsak, mazkur qishloqlardagi uy-joy va inshootlarning me‘moriy yechimini Buxoro xonligi misollaridan foydalandik. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bu an‘analarning ichida bevosita iklim sharoitiga moslashish va xalq urf-odatlarini hisobga olish tufayli yuzaga kelgan o‘nlab me‘moriy qonuniyatlar yuzaga kelgan bo‘lib, ular asossiz unutilib yuborilayapti.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Turkiston tog‘larida, jumladan, Nurota tizmasining shimoliy yon bag‘rida ham quyi paleolit davridan boshlab odamlar yashashab kelgan[21,B.131] va bu zamin qadimgi davlatlar tarkibiga kirgan. Shunga qaramay, Nurota tizmasining shimoliy yon bag‘rida xalqlarning joylashishi tarixi haqida turlcha fikrlar mavjud. Akademiy Muxturov bu qishloqlarning tosh bitiklarini o‘rganib, ularning joylashish tarixini XVIII asrga bog‘langan va Fujakning tegirmon toshi sanasi 1145 (ya‘ni 1732), yangi Porashtda qabri qopqog‘i – 1266(1849), Nuxudakning eski bog‘ini– 1126 (1714) yillarga taqaydi[22,B.156]. Ushbu fikrning to‘g‘riligini isbotlash uchun yangi arxeolog tadqiqotlar zarur. Muallif, avvalo, ko‘pchilik eski toshlardagi bitiklarni o‘qish qiyinligini ta‘kidlab, Shayx Shibliy qabri Porashtda 773 (ya‘ni 1362) yilni ko‘rsatadi. Uxum aholisining guvohlik berishicha, “Kajdum” g‘oridan topilgan hayvon qoldiqlari juda qadimiydir[23,B.351], qal‘alar tarixi aholining joylashishining juda qadimiy tarixidan dalolat beradi. Bu inshootlarning qurilgan davrini mazkur qal‘alardagi masjidning ustunlaiga o‘yib chizilgan tasvirlar orqali ham bilish mumkin. Masalan, Uxum masjidi ustunidagi bir dasta uzum surati X-XII asrga oid, ustundagi odam timsoli (islomgacha) so‘g‘d davriga oid, yovvoyi tog‘qo‘yi (olqor) shoxi esa qadimgi diniy e‘tiqodlarga aloqadordir[24,B.4]. Bu fikrni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, odamlar bu tog‘larda qadimdan yashab kelgan. Afsuski, juda qadimgi davrlar haqida hali ham aniq dalillar yo‘q va uni qayta topish qiyin. Chunki hamma zamonlarda ham tumanning chekkada joylashgani, savodsizligi

muammoni hal etishni juda qiyinlashtirib qo‘ygan va bu o‘lkada bo‘roning haddan tashqari shiddati tufayli toshga bitilgan bitiklar o‘z o‘rnini bosmaydi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tmishda Nurota tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘ri mintaqasi ham O‘rta Osiyoning barcha xalqlari singari jahon savdo yo‘llari bilan ozmi-ko‘pmi bog‘liq bo‘lgan. Hatto bu yerdan, Buxoro va Shosh (Toshkent)ni bog‘lovchi “ipak yo‘li”ning bir tarmog‘i o‘tadi, deb taxmin qilinadi[25,B.85]. Asrlar davomida bu hudud aholisi siyosiy voqealardan qat’i nazar, tog‘lar sharoitiga moslashib, o‘troqlik va dehqonchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini topib kelgan. Bu xususiyatlar aholi zichligining nisbatan pasligi, rivojlanish darajasining pasligi, qishloq shakli va ularning aholisining suv resurslariga bog‘liqligi va hokazolarda nomoyon bo‘ladi. Masalan, suv va yer resurslari yetishmasligi sababli aholining boshqa tumanlarga ko‘chib ketishi qadimiy keng tarqalgan hodisalardan biri bo‘lgan. Nurota tizma tog‘ining shimoliy yonbag‘ri tojik aholisi insoniyat patriarxal turmush tarziga eda bo‘lib, jamoa uylarida yashagan. Keyinroq uy-joy qurib, 3-4 ta oila birga yashagan. Qal’alar asosiy mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lib, ular tog‘ shahariga oxshaydi, bu yerda aholi kasbiga qarab mahallalarni tashkil qilgan. Qal’alar ichidagi tor ko‘chalar uni qismlarga bo‘lgan. Har bir qismning oshxonasi, mehmonxonasi, alohida otxonasi borligi shundan dalolat beradi[26]. Qadimiy uylarning loyihasi, ustunlarning naqshi so‘g‘dliklarni eslatadi. Ular dastlab past tosh uylar (kadak), yer osti uylar (to‘la)dan iborat bo‘lgan. Tomi loy bilan qoplangan tosh bino (ikki tomonda yashash xonalari, o‘rtada dahliz – “xo‘rjin” uylar) va uning yonida omborxonona va molxonali turar joylar keyinchalik paydo bo‘ldi[27,B.23]. Odamlar qishni shunday uylarda o‘tkazishar va bahorda o‘z bog‘lariga borib, vaqtinchalik shiyponlarda, chayla va to‘lalarda yashashgan. Qishloqlar ancha keyin paydo bo‘lgan. Qishloq uylari soyning ikki tomonidagi nisbatan baland va tekis joylarida qurilgan. Vaqt o‘tishi bilan har bir qishloqda asta-sekin aholi mpunktleri (urug‘iga ko‘ra) va bir necha shaxsiy hovlilarning uylari paydo bo‘lgan. Tadrijan, tomlari loy bilan suvalgan tosh uylar qurila boshlandi. Uylar tosh va loydan qurilgan bo‘lib, devorlarida tokchalar, mehrob va dudburon (xonaning burchagining shift qismida taxminan 40x40 sm o‘lchamdagi teshik, uning ostida tosh bilan o‘ralgan o‘choq) bo‘lgan. Uylarning oldida supa (uylar qiyalikda qurilganligi uchun, supalarning bir tomoni uyning ostonasiga taqalib, ikkinchi tomoni soylik tomonga, yerdan 1-1,5 metr baland bo‘lgan), dahliz va ma’lum uzoqlikda tog‘ relefiga xos holatda hojatxona qurilgan. Uylarni hajmiga qarab 5, 7, 9, 11 bolorni bo‘lib, bolorlarning ustidan vassa[28] qo‘yilib, uning ustidan qamish yoki shuvoq yoyilib,

ho‘l tuproqni 15-20 sm qalinlikda yoyilgan va ustidan somonli loy bilan suvalgan. Suvoq vaqtida obdavlarga e‘tibor berilgan yoki tom bir tomonga qiya qilib yopilgan. Novlar yog‘ochdan qilingan va shuning uchun hozirgacha saqlanmagan. Uy devorlarini suvoq qilish, yuqorida aytilgandek, keyinchalik boshlangan, ungacha faqat “panjakash”[29] qilingan. Uylarning tomi meva quritiladigan maydon vazifasini o‘tagan. Har bir uyda qishda sandal qo‘yilgan. Har bir oilada non pishirish va choy tayyorlash uchun maxsus pechkalar bo‘lgan. Yaqinda pishirish pechlari ham paydo bo‘ldi. Masalan, 1935 yilda Sovuqbuloqdan Nazarov Rasul Ej qishlog‘iga birinchi pechni olib kelgan[30,B.254].

**Xulosa.** Maskur geografik hudud aholisi joylashgan qishloqlar ichimlik suvi manbaalariga mos ravishda siyrak joylashgan. Masalan, hozir Forish tumanida 1 km ga 7, 1, Nurato tumanida 10,1 kishi to‘g‘ri keladi. Samarqand viloyatining Qo‘shrabod tumanida aholi zichligi bundan ham pastroq[31,B.23], buning asosiy sababi suv ta‘minotining cheklanganligidir. Tog‘ vodiylarida aholi zichligi bir kishidan kam.

Mintaqada aholining yosh tarkibi ham bolalar (30%) va keksalar (40%) ko‘proq bo‘lgan tekisliklardan farq qiladi. Bunday holatga sabab, o‘rta yoshdagi aholiningish yo‘qligi va yer yo‘qligi sababli boshqa tumanlarga ko‘chib o‘tishi, uning ma‘lum bir qismi esa qariganida o‘z qishlog‘igaqaytib kelishidir.

Biroq, ko‘plab qadimiy qurilish uslublari o‘zgarib, derazali, gipsli va zamonaviy uylar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, 50-yillardan keyin uy qurish uslubida va qishloq madaniyati o‘garmoqda . Hozir qishloqlarda klublar, qiroatxonalar(maktablar), savdo do‘konlari, choyxonalar barpo etilgan, yo‘llarning ko‘p qismi asfaltlangan, qishloqlar qiyofasi shaharchalarga o‘xshab ketgan. Zamonaviy texnologiya asoslangan holda, tog‘larda zinapoyalar va uch-ikki qavatli binolar ba‘zi qadimiy me‘morchilik usullaridan foydalanish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон ССР тарихи.Ф.Фулом наш., 1978й.
2. Мухаммад Наршахи. Таърих-и Бухара. Т.: SMIA-SIA,2011.  
Вамбери Х.Истотия Бухари. М.;1924.
3. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи.”Ўзбекистон”.1995.
4. Нильсин В.А. Архитектура Средней Азии (V-VIIIвв).Т.;;Фан.1966-й.
5. Азимов И. Архитектурные памятники Ферганский долины. Т.;Узбекистан. 1982й.



6. В.М. Массон. Культурогенез Древней Центральной Азии. Изд-во СПбГУ. 2006.
7. Ахмедов М.К. Ансамблевая застройка: Традиции и преемственность “Архитектуры Узбекистана”. Т.; 1985й.
8. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектурэ Средней Азии IX-XV вв. изд. 2-ое исп. и доп. М.; “Наука”. 1988.
9. Dala yozuvlari. Ухум ва Эж кишлокларидаги қаъла деворлари яхши сақланган.
10. Dala yozuvlari. Халқ тилида бу шамол “шамоли барин” дейилади, бу шимоли шарқ томондан эсаётганини ҳисобга олсак, барин-Беринг бўғози назарда тутилган бўлиши мумкин.
11. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1959.
12. Нозилов Д.А. Тоғлардаги қўрғонлар, “Фан ва турмуш” жур., 1972.
13. Ахмедов М.К. Ўрта Осиё ме’морчилиги тарихи. “Ўзбекистон” наш., 1995-й.
14. Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. Ф. Фулом наш. Т.; 1992й.
15. Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. Т.; 1981й.
16. Dala yozuvlari. Зарнук кишлоғи чордеволлари.
17. Зоҳидов П.Ш. Зеб ичра зийнат. Ф. Фулом наш. Т.; 1992й.
18. Ахмедов М.К. Ансамблевая застройка: Традиции и преемственность “Архитектура Узбекистана” (альманах). Т.; 1985й.
19. Пугаченкова Г. Зодчество Центральной Азии (XV век). Ф. Фулом наш. Т.; 1976-й.
20. Очилов А.Т. Қуйи Зарафшон воҳасининг тош даври тарихий реконструкцияси масалалари. “Ijtimoiy fanlar” (№2/2022)
21. А. Мухторов, асрори номаҳо. Д.; “Афсона” 1998-сол.
22. Dala yozuvlari. Ухум кишлоғи.
23. Нозилов Д.А. Архитектура горных районов Узбекистана. Т.; 1984й.
24. Ш. Исмоилзода. Нурато қиссаси. “Тамаддун” наш. 2010й.
25. Ремпел Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Т.; 1961й.
26. Нозилов Д.А. Тоғлардаги қўрғонлар. “Фан ва турмуш” ж.
27. Dala yozuvlari. Болорликка ярайдиган дарахларнинг шохлари вассаликка ишлатилган
28. Dala yozuvlari. Лойни қўл билан деворга уриб, ёпиштирилган сувоқ тури

29. Dala yozuvlari. Сандал- остида чўғ учун чуқурча ковланган, устига катта кўрпа солинган, атрофида одамлар ўтирадиган хонтахта.
30. Dala yozuvlari. Эж қишлоғи оқсоқоллари билан суҳбатдан.
31. Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. Ғ.Ғулом наш. Т.; 1992й.
32. А.Солев. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.; 2014-й.